



Jhone M. Ebert, Senior Deputy Commissioner for Education Policy
Education Building, Room 2M EB (518) 474-3862
89 Washington Avenue
Albany, NY 12234
jhone.ebert@nysed.gov

2017-yil 27-fevral

Kimga: Okrug rahbarlari
Davlat maktablari boshqaruvchilari
Davlat maktablari direktorlari
Davlatga tegishli bo'lmagan va o'z nizomi asosida
faoliyat yurituvchi maktablar ma'murlari

Kimdan: Jhone M. Ebert, komissarning katta yordamchisi

Mavzu: Yaqinda immigratsiya bilan bog'liq hatti-harakatlardan kelib chiqib,
maktablarda ta'qib qilish, qo'rqitish va kamsitishga qarshi kurash bo'yicha
mavjud qo'llanma va resurslar

So'nggi haftalarda ommaviy axborot vositalarida mamlakatdagi ko'plab maktablarda ta'qib qilish, qo'rqitish va kamsitish singari noxush hodisalar haqidagi xabarlar paydo bo'la boshladi. Bundan tashqari, yaqinda federal hukumat amaldorlarining immigratsiyaga oid hatti-harakatlari butun mamlakatda qo'rquv va sarosimaga sabab bo'ldi. Nyu-York shtatining Ta'lim departamenti ("NYSHTD" yoki "Departament") o'quvchilarimiz har kuni o'qib-o'rganishga keladigan maktab muhitiga salbiy ta'sir etadigan har qanday hatti-harakatga jiddiy e'tibor qaratadi. Nyu-York shtatida advokatlar, ota-onalar va maktab xodimlari Departamentga murojaat qilib, uni ta'qib qilish, qo'rqitish va kamsitishga oid mavjud yo'riqnoma va resurslarga va mukammallashtirish, shuningdek, "Barcha o'quvchilarning qadr-qimmatini to'g'risida"gi qonunga ("DASA" yoki "Qadr-qimmat to'g'risida"gi qonun) ko'ra, maktablarda ijobiy muhitni qaror toptirish va qo'llab-quvvatlash borasidagi sa'y-harakatlarni kuchaytirishga chorladi.

taqiqlovchi axloq kodeksini, shuningdek, kamsitish va ta'qib qilish singari noxush

chiqishni so'rab, arz qilishi mumkin. Shikoyatni qanday jo'natish to'g'risidagi ma'lumot ingliz, ispan, arab, xitoy (soddalashtirilgan), bengal va Gaiti kreolchasida quyidagi havolada mavjud: www.counsel.nysed.gov.

Shuni yodda tutingki, Departament o'quvchining shaxsini aniqlash mumkin bo'lgan darajadagi ma'lumot maxfiylikni qo'riqlashga harakat qiladi hamda barcha bunday ma'lumotlarga amaldagi maxfiylik to'g'risidagi qonunlar va nizomlar, jumladan, "Olianing ta'lim olish huquqlari va ma'lumotlari sir saqlanishi to'g'risida"gi federal qonunga ("FERPA") mos ravishda munosabatda bo'ladi.

Departament DASA qonuni haqida ota-onalar, vasiylar va boshqa qiziqqan shaxslar uchun Nyu-York shtatidagi eng ko'p so'zlashiladigan o'nta tilda resurslar chiqaradi.

Bundan tashqari, NYSHTD maktab xodimlari, o'quvchilar, ota-onalar va hamjamiyatlarga yordam beradigan quyidagi resurs va qo'llanmalarni belgilagan. Qo'llash mumkin bo'lgan joylarda mana shu resurslardan foydalaning hamda ushbu qo'llanmalarni maktab hamjamiyatlaringizning maqsad va ehtiyojlari biybor gan ji t1.24408 Tw T4 harakatalarmia qo'sillng.

- Nyu-York shtati Maktablar uchun tibbiyot markazining yangilangan "Ruhiy salomatlik va maslahat resurslari" sahifasi:
<https://www.schoolhealthny.com/site/default.aspx?PageType=3&ModuleInstanceID=190&ViewID=7b97f7ed-8e5e-4120-848f-a8b4987d588f&RenderLoc=0&FlexDataID=108&PageID=126>

Butun Nyu-York shtatida o'quvchilarimiz, oilalarimiz va hamjamiyatlarimizni har kuni qo'llab-quvvatlash borasidagi sa'y-harakatlaringiz uchun yana bir karra rahmat. Hammamiz birlashsak, o'quvchilarimiz va maktab hamjamiyatlarimiz maktab muhitida o'zini xavfsiz ekanini va qo'llab-quvvatlanayotganini his qilishiga ishonch hosil qilamiz. Mabodo ushbu muhim mavzularni muhokama qilmoqchi yoki biror xavotiringizni izhor qilmoqchi bo'lsangiz, har doimgiday, bizga, ya'ni 518-486-6090 yoki studentsupportservices@nysed.gov orqali O'quvchilarga yordam ko'rsatish xizmatlari boshqarmasiga va yoki 718-722-2445 yoki obewl@nysed.gov orqali Ikki tilli ta'lim va jahon tillari boshqarmasiga murojaat qiling.